

Rasmiy munosabat

Ijtimoiy tarmoqlarda *“Buxoro davlat texnika universiteti sobiq dekan o‘rinbosari Rajab Halimov 700 dollar bilan ushlangan va sud hukmi bilan pedagogik faoliyat yuritish huquqidan mahrum etilgan bo‘lsa-da, dekan o‘rinbosari lavozimidan o‘qituvchilikka o‘tkazilgan hamda talabalar bilan dars o‘tmoqda”* degan mazmundagi xabarlar tarqaldi.

Mazkur holat bo‘yicha shuni ma’lum qilamizki, ish beruvchiga huquq-tartibot organlaridan ushbu shaxsga nisbatan hech qanday rasmiy hujjat yoki ma’lumot taqdim etilmagan. Shu sababli, tashkilotda uning sudlanganligi yoki pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqidan mahrum etilgani haqida rasmiy ma’lumot mavjud emas.

Ayni paytda mazkur masala bo‘yicha tegishli idoralarga so‘rov yuborilgan bo‘lib, zarur ma’lumot olingach, qo‘shimcha axborot taqdim etiladi.

👉 Shuningdek, Rajab Halimovning dekan o‘rinbosari lavozimidan o‘qituvchilik faoliyatiga o‘tkazilgani universitetning institut maqomidan universitet maqomiga o‘tishi munosabati bilan shtatlar qisqarishi bilan bog‘liq ekanligini ma’lum qilamiz.